

VATANNI MADH ETGAN SHOIR!

Yo‘ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi

Toshkent davlat transport universiteti
Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) 2-bosqich talabasi
yoldoshevarangiz311@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sernafas shoirning vatanni madh etgan she’rlariga chuqur nazar solamiz. Unda qo‘llanilgan badiiy so‘z ustaligining eng nozik jihatlariga o‘z e’tiborimizni qaratamiz. She’rlarida metafora qo‘llash bilan bo‘lgan katta va kichikni birdek o‘ziga rom eta olgan o‘lmas san’at asariga yuzlandik.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, havo, o‘lka, erkinlik, parvoz, bepoyonlik, cho‘llar, miqyos, shabboda, cho‘llar.

ПОЭТ, ВОССЛАВИВШИЙ СТРАНУ!

Юлдошева Фарангиз Сайфиддиновна

Ташкентская область транспортный университет
Юриспруденция (международное транспортное право) студент 2 ступени
yoldoshevarangiz311@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В этой статье мы подробно рассмотрим стихи великого поэта, восхваляющие Родину. Мы уделим внимание тончайшим аспектам используемой в ней художественной лексики. Мы обратились к бессмертному произведению искусства, сумевшему с помощью метафор в своих стихах запечатлеть и большое, и малое.

Ключевые слова: Узбекистан, воздух, страна, свобода, полет, бесконечность, пустыни, масштаб, пустыни.

A POET WHO PRAISED THE COUNTRY!

Yoldosheva Farangiz Sayfiddinovna

Tashkent State Transport University
Jurisprudence (international transport law) 2nd stage student
yoldoshevarangiz311@gmail.com

ABSTRACT

In this article, we will take a deep look at the poems of the great poet praising the motherland. We will pay attention to the subtlest aspects of artistic vocabulary used in it. We turned to the immortal work of art, which was able to capture both the big and the small with the use of metaphors in its poems.

Key words: Uzbekistan, air, country, freedom, flight, infinity, deserts, scale,deserts.

Inson bu dunyoda yashar ekan u qancha umr ko‘rishini o‘zi bilmaydi. Ammo u yaratgan asarlar, u qoldirgan ulkan meros uning nomini abadiylikka muhrlaydi. Bugun umrini abadiylikka muhrlab ketgan o‘zbek va ozarbayjonning suyukli farzandi Maxsumbek o‘g‘li Maqsud Shayxzodaning ijodiga nazar solamiz. inson haq-huquqlarining toptalishini o‘zi guvoh bo‘lgan voqealarni umumlashtirgan holda tasvirlagan, e’tiqod, vatanparvarlik, vijdon amrini har bir kishining jamiyatdagi mavqeい va insoniy qadrqimmatini belgilovchi muhim ma’naviy qadriyatlar sifatida talqin etgan. Yurt ishqida yongan shoir o‘zining “ O‘zbekiston” she’rida:

Yopiq sandiqda ham saqlanar havo,
Ammo u yo‘qotgan havo nafasin.
Uni havo deyish, o‘zi noravo,
Bandilik bug‘ibdi orzu-havasin.

ya’ni shoir ushbu misralar orqali havo sandiqdek yopiq joyda saqlansa, ya’nikim u erkinlikda bo‘lmasa, ochiq osmon ostida bo‘lmasa hatto u havo ham o‘z nafasini yo‘qotishini tushuntirib bergen. Aslida bu havo insonlar hayotiga qiyos tarzida yozilgandir. Bunday muhit uning barcha go‘zal orzu-havaslarini bandilik botqog‘iga g‘arq qilganligini ta’riflab bergen.

U-o‘lgan sharobdek beparvo,bejon,
Na mastlik keltirar va na hayajon.
Holbuki, bir chog‘lar erkin parvozda
Yerga sherik bo‘lib o‘ynab yugurgan,
Quyunning bo‘lagi, ulkan miqyosda-
Bepoyon cho‘llarda qumlar sovurgan.

bandilik nimagadir qaramlik va asirlik hayotingizni ostin-ustun qilib yuboradi. Ushbu misralarda ham havo o‘z ta’sir kuchini yo‘qotganligi ammo bir zamonlar yer bilan o‘ynab yurgan, quyunning bir bo‘lagi, bepoyon va kimsasiz cho‘l-u sahrolarda qumlar sovurib yurgan havoning asirlik kechinmalarini juda noziklik bilan ifodalagan. Yoki oqshom payti shabboda bilan,
Chinorlar tagida qizlarni o‘pgan.

Daralar ichida yonganda gulxan,
Biroz isingani olovga chopgan.

Havoning hamma joyda bo‘lishi u kechalari chinorlar tagida qalblarni titratgan sevgi tuyg‘usidan larzaga kelgan oshiq yigit va mashuqasi o‘rtasidagi munosabatlar guvoh bo‘lganligi, gulxanlarga yondoshligi aytilgan.

Bu bari bo‘lgan gap. Bari haqiqat...

Ammo eslanadi tushlarda faqat.

Sandiqa bo‘g‘ilgan bir parcha havo,
Bir chog‘lar erkinman deb qilgan da’vo...

Haqiqatlar ham bir kun faqat tushlarda eslanadi. Ba’zi haqiqatlarning o‘z davri bo‘ladiki, u faqat o‘sha vaqt uchun muhim bo‘ladi-yu ammo vaqt o‘tib u o‘zgarmaydi ammo eskiradi va faqat xayollarda eslanadigan ko‘rinishga keladi. Xuddi shu holatni shoir bir zamonlar ozod bo‘lgan havoning erkinlikka qilgan da’vosi kabi izohlaydi. Zero, bu jumlalar tagida hech bir narsa abadiy emas degan buyuk tushuncha yotadi.

Shunday: tinib qolgan bir kosa suvda,
Sellarning, soylarning afsonasi bor.
O‘ngib, xira bo‘lgan siniq ko‘zguda,
Xushro‘ylar husnining vayronasi bor.

O‘tkinchi dunyoda yashar ekanmiz, buyuk davrlarga guvoh bo‘lamiz. Bir paytlar yeldek uchgan, dengizdan, daryolardan o‘tgan bir kosachada jam bo‘lgan suv nelab vayronagarchiliklarga sabab bo‘lgan sellarning, tiniq suvlari bilan hammani o‘ziga jalb qilgan sellarning bir mo‘jaz ko‘rinishi, bir afsonasi ekaniga ishongingiz kelmaydi. Ammo shunday inson umri ham bir seldek oqib o‘tib ketadi. Har nening o‘z vaqt soati va davri bo‘ladi. Muhimi shunday paytda hazrati insoniylik iymonimizni johillik botqog‘iga g‘arq qilmasligimiz kerakdir.

Bugungi sukutda, tinglasang, dildor,
Kechagi to‘ylarning taronasi bor.

Bugun shunday ozod va obod yurtda baxtiyor yashar ekanmiz, bu kunlar uchun otabobolarimiz, ajdodlarimiz, jadidlar mehnati shubhasiz. Bugun mustaqil yurt farzandiga boqib turar ekansiz uning ko‘zlarida ertangi kunga bo‘lgan ulkan ishonchni ko‘ramiz. Shoir bu misralarda ham buguning baxtli bo‘lsin ammo kechagi kuningni aslo unutma degan ma’noda so‘z yuritgan.

Shoирning harorat bilan bitilgan ehtirosli satrlarida ijod nafasi, hayotsevarlik ruhi ufurib turadi. Uning she’rlarida vatanga muhabbat, insonlardagi mehr-oqibat, bunyodkorlik qudrati tarannum etiladi, asl vatan farzandiga xos bo‘lgan vafo, pok sevgi va sadoqat tuyg‘ulari ulug’lanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi IIV Qashqadaryo akademik litseyi o'qituvchisi Eralova Marxabo maqolasi.
2. Ziyo.uz.comkutubxonasi.
3. Maqsud Shayxzoda.She'rilar.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijod>
5. Fayllar.org
6. <https://uzhurriyat.uz>